

1.	“Ipoteka-bank” ATIBda omonatlarni kafolatlash	Omonatlar Omonatlarni kafolatlash agentligi tomonidan kafolatlanadi
2.	Omonatlarni kafolatlashni tartibga soluvchi normativ hujjat	O‘zbekiston Respublikasining “Banklardagi omonatlarni himoya qilish kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni
3.	Kafolatlash obyekti	Jismoniy shaxslarning, shu jumladan yakka tartibdagi tadbirkorlarning, shuningdek yuridik shaxslarning bankda milliy va xorijiy valyutada joylashtirilgan omonatlari. Omonat deb bank omonati shartnomasi yoki bank hisobvarag‘i shartnomasiga muvofiq pul mablag‘lari qoldig‘i, shuningdek hisoblangan (lekin to‘lanmagan) foizlar qoldig‘i tushuniladi. <i>Batafsil ma’lumot uchun O‘zbekiston Respublikasining “Banklardagi omonatlarni himoya qilish kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunining 25-moddasiga qarang.</i>
4.	Kafolatlangan omonat	Kompensatsiya to‘lanadigan kafolatlash obyekti yoki uning bir qismi
5.	Kafolatlangan omonatlar bo‘yicha kompensatsiya	Kafolat hodisasi yuzaga kelganda Omonatlarni kafolatlash agentligi tomonidan to‘lanadigan pul mablag‘lari
6.	Kafolat hodisasi	Bank faoliyatini amalga oshirish huquqi uchun berilgan litsenziyaning bekor qilinishi va bankning majburiy tugatilishi
7.	Kompensatsiya miqdori	Bir bankda bitta omonatchiga to‘lanadigan kompensatsiya miqdori quyidagicha: agar kafolatlash obyekti qoldig‘i 200 mln so‘mdan oshmasa — to‘liq hajmda; agar kafolatlash obyekti summasi 200 mln so‘mdan oshsa — 200 mln so‘m miqdorida. Xorijiy valyutadagi kafolatlangan omonat bo‘yicha kompensatsiya kafolat hodisasi yuzaga kelgan sanadagi Markaziy bank kursi bo‘yicha milliy valyutada to‘lanadi. <i>Batafsil ma’lumot uchun O‘zbekiston Respublikasining “Banklardagi omonatlarni himoya qilish kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunining 26-moddasiga qarang.</i>
8.	Kompensatsiya to‘lash muddati	Agentlik tugatilayotgan bank omonatchilarining kamida to‘rt dan uch qismi uchun kompensatsiya olish imkoniyatini ta’minlashi shart:

		2026-yil 1-yanvardan boshlab — 15 ish kuni davomida; 2027-yil 1-yanvardan boshlab — 7 ish kuni davomida.
9.	Omonatlarni kafolatlash agentligining aloqa ma'lumotlari	Manzil: O'zbekiston Respublikasi, 100027, Toshkent shahri, Qoratosh ko'chasi 1 (Banklar assotsiatsiyasi binosi) Ishonch telefoni: +998 555 500 500 Email: info@uzoka.uz , https://fgd.uz/